

“Qishloq xo‘jaligi va atrof-muhitni muhofaza qilish” yo‘nalishidagi ilmiy faoliyatga oid davlat maqsadli dasturi doirasida dolzarb muammolarni hal etish va aniq mahsulotga qaratilgan

MAQSADLI DASTURI

t/r	Loyiha mavzusi	Loyiha bajarilishidan kutilayotgan natija
1	Respublikamizning kuchli va o‘rta sho‘rlangan hududlariga ekishga mos shuningdek chorva mollari uchun ozuqa bazasini yaratishda bedaning mahalliy va xorijiy kolleksiya namunalaridan tanlab olish. 	Tadqiqot shakli: Amaliy Ilmiy tadqiqot natijalari: - kuchli va o‘rta sho‘rlangan hududlariga chidamli yangi beda navlari parvarishlash orqali chorva mollari uchun ozuqa bazasi yaratiladi, tuproqning unumdorligi ortadi hamda fizik-kimyoviy xossalari yaxshilanadi, sho‘rlanish darajasi pasayadi (tuproqda 450-670 kg/ga biologik azot, 2,5-3,5 tonna organik massa qoldirib tuproqning unumdorlik qobiliyatini 20-25 % ga oshiradi); - chorvachilikda ozuqa ekinlaridan asosiysi hisoblanib, ozuqa ratsioni tarkibiga qo‘shimcha oqsil boyitiladi (pichani tarkibida 20-22% oqsil mavjud); - yangi sho‘rga bardoshli beda navi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishga joriy etilishi sho‘r yuvishga sarflanadigan suv va energiya resurslari boshqa harajatlarni qisqartiradi hamda kasallik va zararkunandalarni ta’sirini pasaytiradi, kelgusida ekiladigan ekinlarning tannarxini kamaytiradi; - yangi beda navi urug‘lari ko‘paytiriladi hamda tijoratlashtirish uchun asos yaratiladi. Natijalarni sinovdan o‘tkazish. Olingan natijalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasi yoki unga tegishli tashkilotlardan sinovdan o‘tkaziladi va ularning amaliyotda foydalanish uchun qabul qilinganligi to‘g‘risida Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining xulosasi olinadi. Ilmiy natijalarni chop etish. Olingan tadqiqot natijalari intellektual mulk obyektlari uchun hujjatlar tayyorlanadi. Tadqiqot natijalari asosida tavsiyanomalar, o‘quv qo‘llanmalar, hamda nufuzli jurnallarda va <i>Web of Science/Scopus</i> ma’lumotlar bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop etiladi Izoh. Ushbu mavzuga taqdim etiladigan ilmiy loyihalar Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish qo‘mitasining qo‘llab-quvvatlash xati mavjud bo‘lganida qabul qilinadi.